

Date: 29<sup>th</sup> March-2026

**AYOL JAMIYAT KO'ZGUSI**

**Jabborova Sayyora Muhammadqobilovna**

Andijon davlat pedagogika instituti,

MG'MAHT kafedraasi stajyor-o'qituvchisi

**To'xtamurodova Ominaxon Botirjon qizi**

**To'xtamurodova Oydinoy Botirjon qizi**

Andijon davlat pedagogika instituti

Pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalari

Email:ominaxontoxtamurodova09@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ayolning jamiyat ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy hayotidagi o'rni, shuningdek, uning umuminsoniy taraqqiyotdagi fundamental ahamiyati falsafiy hamda ma'rifiy nuqtai nazardan chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqotda "Ayol jamiyat ko'zgusi" konsepsiyasining falsafiy mazmun-mohiyati ochib berilgan bo'lib, xotin-qizlarning intellektual salohiyati va ma'naviy yetukligi kelajak avlod tarbiyasida strategik ahamiyatga ega ekanligi asoslab berilgan.

Maqolada ayol timsoli shunchaki ijtimoiy birlik emas, balki millatning madaniy darajasi, estetik qarashlari va umumiy taraqqiyot ko'rsatkichi ekanligi ilmiy dalillar yordamida yoritiladi. Shuningdek, xotin-qizlarning zamonaviy jamiyatdagi faollashuvi, ularning ilm-fan va boshqaruvdagi o'rni hamda oila barqarorligini ta'minlashdagi roli o'zaro uyg'unlikda tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar:** Ayol va jamiyat, ijtimoiy taraqqiyot, ma'naviy kamolot, intellektual salohiyat, falsafiy tahlil, milliy qadriyatlar, avlodlar vorisligi.

**Аннотация:** В статье глубоко анализируется роль женщины в социально-политической и духовной жизни общества, а также ее фундаментальное значение в общечеловеческом развитии с философской и просветительской точек зрения. В исследовании раскрывается философское содержание концепции «Женщина – зеркало общества» и обосновывается, что интеллектуальный потенциал и духовная зрелость женщин имеют стратегическое значение в воспитании будущих поколений. В статье с помощью научных доказательств показано, что женский образ — это не просто социальная единица, а показатель культурного уровня, эстетических взглядов и общего развития нации. В работе также анализируется активизация женщин в современном обществе, их роль в науке и управлении, а также их роль в обеспечении стабильности семьи в гармонии.

**Ключевые слова:** Женщина и общество, социальное развитие, духовное совершенствование, интеллектуальный потенциал, философский анализ, национальные ценности, преемственность поколений.

**Annotation:** This article provides a deep philosophical and educational analysis of the role of women in the socio-political and spiritual life of society, as well as their fundamental importance in universal development. The study reveals the philosophical essence of the



Date: 29<sup>th</sup> March-2026

concept of "A woman is a mirror of society" and substantiates that the intellectual potential and spiritual maturity of women are of strategic importance in raising future generations.

The article highlights, using scientific evidence, that the female image is not just a social unit, but also an indicator of the cultural level, aesthetic views, and overall development of a nation. The book also analyzes the role of women in modern society, their role in science and governance, and their role in ensuring family stability.

**Keywords:** Woman and society, social development, spiritual maturity, intellectual potential, philosophical analysis, national values, generational succession.

**Kirish.** Bugungi kunda ham hukumatimiz tomonidan xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini ta'minlash, jamiyatda qadrini va qaddini ko'tarish maqsadida qator ishlar amalga oshirilmoqda. Bu xayrli ishlarining samarasini esa barcha opa-singillarimiz o'z hayotlari, umr yo'llari davomida his etishmoqda. Shu bilan birga ko'rsatilayotgan mehr-muhabbatni yuksak baholab, barcha sohalarida o'z bilim va salohiyatlarini ko'rsatmoqda, jahon arenalarida davlatimiz bayrog'ini yanada baland tutmoqda, yer yuzidagi eng mashhur, yirik kompaniyalarda mehnat qilib, o'zbeklarning salohiyatini namoyish qilmoqda. Joriy yil 1 mart kuni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash tizimi hamda ularning jamiyatdagi mavqeini yanada mustahkamlash masalalari bo'yicha o'tkazilgan videosektor yig'ilishi ham bu masalaga alohida e'tibor qaratildi. Kelgusi o'quv yilidan boshlab jamiyatimizda olim ayollar ulushini sezilarli oshirish uchun doktorantura yo'nalishida xotin-qizlar uchun har yili kamida 300 tadan maqsadli kvota ajratilishini bildirdi. Bu yangilikni ilmga tashna opa-singillarimiz katta quvonch va hayajon bilan qarshi oldi. «Ma'rifat» targ'ibotchilar jamiyatining 150 nafardan ortiq ilm-fan, san'at va adabiyot sohalarida faoliyat olib borayotgan opa-singillarimiz, bir so'z bilan aytganda millatizning ziyoli a'zolari ham ushbu yangilikdan xursand bo'ldi. Bu yo'lda davlatimiz rahbarining yonida bo'lishlarini bildirdi. Ayol – jamiyat guljoji, borliq ko'zgusi, millat tarbiyachisi.<sup>12</sup>

Bugungi kunda mamlakatimizda xotin-qizlarning jamiyat hayotidagi faolligini oshirish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Ayollarning nafaqat oila bekasi, balki yetuk olim, tadbirkor, siyosatchi va boshqaruvchi sifatida namoyon bo'lishi jamiyatda sog'lom raqobat va ijtimoiy adolat muhitini yaratadi. O'zbekistonda ilmiy faoliyat bilan shug'ullanayotgan fan doktorlarining soni 700 dan ortiq, fan sohasida izlanish olib borayotgan ayollar soni 5 mingdan ziyod, oliy ta'lim dargohlarida dars berayotgan xotinqizlar soni 14 mingdan oshganligi ulkan o'zgarishdir. Yurtboshimiz xotin-qizlar masalalari borasida so'nggi yeti yilda 300 dan ortiq topshiriq, vazifalar va e'tibor hamda e'tiroflar qilganliklari tahsinga sazovor. Xotin-qizlarimiz nafaqat oilada tarbiyachilik qilish, balki davlat islohotlarini amalga oshirishda ham o'z faolliklarini ko'rsatmoqdalar. 2023-yil holatiga ko'ra, ayollarimizning ulushi tibbiyotda 77 foizga, ta'lim sohasida 74 foizga, iqtisodiyot va

<sup>12</sup> Mirziyoyev Sh.M. "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash tizimi hamda ularning jamiyatdagi mavqeini yanada mustahkamlash masalalari" bo'yicha videosektor yig'ilishi ma'ruzasi. – Toshkent, 2022-yil 1-mart.



Date: 29<sup>th</sup> March-2026

sanoat tarmoqlarida 46 foizga yetgan bo'lib, 2 ming nafarga yaqini esa davlat va jamoat tashkilotlarida rahbarlik lavozimlarida xizmat qilib kelmoqda. Bir vaqtning o'zida ham oila, ham davlat ishlarini yuritishda o'zlarining bilim-salohiyati bilan o'rnak ko'rsatayotganliklari ma'naviy jasoratdir. So'nggi yillarda xalqimiz oldidagi munosib xizmatlari uchun 17 nafar ayol eng oliy mukofot sanalgan – "O'zbekiston Qahramoni" unvoni bilan taqdirlandi. Shu bilan birga, Yurtboshimiz tomonidan ilm-fan yo'nalishida xotin-qizlarga juda katta e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, qizlarimiz oliygohlarda o'qib bilim olishiga keng imkoniyatlar taqdim etildi. Imkon qadar qizlarni ham o'qisin, ham hunarli bo'lsin, deya yetarlicha shart-sharoitlar yaratildi.

Prezidentimiz qabul qilgan bir qator farmon va qarorlar davlat tashkilotlariga ayollar huquqlari bilan bog'liq vazifalarni belgilab, ularning mas'uliyatini oshirdi. "Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yana-da kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaror ana shunday muhim hujjatlardan biri.

Vazirlar Mahkamasining "2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida O'zbekiston Barqaror rivojlanishning Beshinchi maqsadi ayollarning huquqlarini va gender tenglikni ta'minlash, barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish belgilangan. Unga ko'ra, 2030-yilga borib barcha xotin-qizlarga nisbatan kamsitishlarning har qanday shakliga barham berish, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotda qarorlar qabul qilishning barcha darajalarida ayollarning to'liq va samarali ishtirokini, yetakchilik qilish uchun teng imkoniyatlarni ta'minlash zarur.<sup>13</sup>

O'zbekiston mustaqilligini qo'lga kiritganidan so'ng, xotin-qizlarni ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy hayotga, jamiyatni tubdan yangilash jarayonlariga keng jalb etishga kirishdi.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov aytganidek, "O'zbekiston bugun butun dunyoda o'ziga munosib obro'-e'tibor qozonmoqda, bu jarayonning uzviy va ajralmas qismi opa-singillarimiz, qizlarimizning xalqaro maydonga chiqishda namoyon bo'ladi. Bunda ayniqsa xotin-qizlar qo'mitalari, ayollar tashkilotlarining xalqaro xotin-qizlar harakatida, gumanitar, ta'lim va boshqa sohalarda faoliyat olib boradigan tashkilotlar ishida faol ishtirokini ta'minlash benihoya katta ahamiyatga ega. Shuningdek, Islom Karimov ayollar haqida "Jamiyatimizdagi bilimdon hayot mazmunini to'g'ri tushunadigan, faol va tashabbuskor xotin-qizlarning hokimiyat vakillik idoralariga saylanishi va ularda ishtirok etishi uchun yanada ko'proq imkoniyatlar yaratish, ularga keng yo'l ochib berish kerak" – deb, ayollarning ham hokimiyat idoralari faoliyatida ishtirok etishlari zarurati haqida eslatgan edilar.

Xotin-qizlarga birinchi Prezidentimiz tomonidan shunchalik e'tibor berilganidan so'ng albatta hamma sohalar va davlat boshqaruvida ham ayollar mavqei ancha kuchayib bordi. Biz buni davlatimizning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati

<sup>13</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. "2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 841-sonli Qarori. – Toshkent, 2018-yil 20-oktyabr.



Date: 29<sup>th</sup> March-2026

organlarida ayollar rolining oshishida ko'rishimiz mumkin. Bu esa yurtimizning rivojlanishida katta rol o'ynamoqda. O'zbekistonda yuz berayotgan iqtisodiy va ijtimoiy yuksalishlar ayollarning ijtimoiy hayotida ham jiddiy o'zgarishlar qilmoqda. Jamiyat hayotining barcha sohalarini demokratlashtirish va inson huquqlarini qaror toptirish jarayonida gender tenglik paydo bo'ldi va rivojlanmoqda. Mustaqil O'zbekiston rivojlanishining mazkur bosqichida ushbu sohada yuz berayotgan jarayonlar bizning respublikada ham, G'arb va Sharqning yuksak darajada rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarida ham katta ilmiy-amaliy qiziqish uyg'otmoqda.

“Ayollarning jamiyatdagi, ijtimoiy - iqtisodiy, siyosiy, madaniy-ma'naviy sohalardagi mavqei u kamol topishi intensivligi darajasining muhim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Ayollarning mavqeini aks ettiradigan ma'lumotlar inson salohiyatini rivojlantirishda mamlakat erishgan real yutuqlarning, shaxsni uyg'un kamol toptirish va uning salohiyatini kompleks ro'yobga chiqarish maqsadida jamiyatning ayollar va erkaklarga teng imkoniyatlar berilgan ijtimoiy adolat sari borishi darajasining xolis me'zoni hisoblanadi. Ayollarning ijtimoiy ma'lumotlarini tizimli tadqiq etishning muhimligi yana shu bilan izohlanadiki, O'zbekistonda jamiyat taraqqiyotining shiddatli o'zgarishi davomida ayollarning mavqeida jiddiy o'zgarishlar yuz berdi va hozirgi kunda ham yuz bermoqda. Yangi iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy realliklar ayollar uchun yangi imkoniyatlar yaratibgina qolmasdan, balki, eski gender ziddiyatlarini keskinlashtirdi va e'lon qilingan oliyanob maqsadlarga qaramasdan gender tengligining asosiy maqsadlari sovet davrida hal etilmaganligini ayon ko'rsatdi”<sup>14</sup>.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytish mumkinki, ayolning jamiyatdagi mavqei va unga ko'rsatilayotgan e'tibor har qanday millatning ma'naviy yetuklik darajasini belgilovchi bosh mezondir. Tadqiqot davomida aniqlanganidek, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi faol ishtiroki nafaqat gender tenglikni ta'minlash, balki davlat boshqaruvi va iqtisodiy barqarorlikning ham muhim omilidir.

Mamlakatimizda ayollar huquqlarini himoya qilish va ularning intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish borasidagi islohotlar shunchaki ijtimoiy loyiha emas, balki uzoq muddatli strategik sarmoyadir. Zero, ilm-fan va innovatsiyalarda (xususan, ta'limda 74%, tibbiyotda 77%) ayollarning ulushi ortishi — jamiyatning ma'rifiy poydevori mustahkamlanayotganidan dalolat beradi. "Ayol – jamiyat ko'zgusi" ekan, ushbu ko'zguda aks etayotgan bilimli olim, faol tadbirkor va oqila ona timsoli Yangi O'zbekistonning haqiqiy qiyofasini namoyon etadi.<sup>15</sup>

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Nizomjon Ismoilov, Toshkent shahri, Usta Shirin 125
2. Maxmudov I. Boshqaruv psixologiyasi. YUNAKS-PRINT. -Toshkent-2005-170 b.

<sup>14</sup>Maxmudov I. Boshqaruv psixologiyasi. YUNAKS-PRINT. -Toshkent-2005-170 b.

<sup>15</sup> Munira Qahhorova, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi bo'lim boshlig'i, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori“Vatanparvar” gazetasi 2024-yil 15-mart, 11-son



Date: 29<sup>th</sup> March-2026

3. Mirziyoyev Sh.M. "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash tizimi hamda ularning jamiyatdagi mavqeini yanada mustahkamlash masalalari" bo'yicha videoselektor yig'ilishi ma'ruzasi. – Toshkent, 2022-yil 1-mart.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. "2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 841-sonli Qarori. – Toshkent, 2018-yil 20-oktyabr.
5. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston strategiyasi. -Toshkent: O'zbekiston, 2021 -464 b.
6. Munira Qahhorova, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi bo'lim boshlig'i, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori "Vatanparvar" gazetasi 2024-yil 15-mart, 11-son

